

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISHDA O'YIN FAOLIYATINING AHAMIYATI

Aminjonova Maftuna G'ayratjon qizi

FarDU 1- kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10804047>

Annotatsiya. Mazkur maqolada, o'yin faoliyati haqida tushuncha o'yin faoliyatining rivojlanish xususiyatlari va bu o'yin faoliyatining maktabgacha yoshdagi bolalarda olib borish jarayonlari shuningdek, o'yin faoliyatining ijobiy va salbiy xususiyatlari haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, bola, yosh, faoliyat, o'yin, siyosat, faollik, psixolog, jarayon, muhit, ta'lim tizimi.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar bilan ishlash jarayonida katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bog'chalarda bolalarning vaqtini mazmunli o'tkazishini ta'minlashdan tashqari ularning psixologik holati, katta bo'lish jarayonlarida tashqi ta'sirlariga reaksiyasini o'rganib ular bilan ishlaydigan malakali psixolog mutaxassislar ishlamoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentyabrda "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5198-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2019-yil-10 maydagi PQ-4312/3106-sonli qarori maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'yinning bolalar psixik taraqqiyotidagi g'oyat katta ahamiyatini nazarda tutib, mashhur pedagoglar va mutafakkir yozuvchilar o'zlarining bu masalaga doir qimmatbaho fikrlarini yozib qoldirganlar. A.S.Makarenkoning fikricha, bolalarning o'yin faoliyatlari ularni jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda rivojlanishlari uchun birdan-bir vositadir. Katta odamlar uchun mehnat faoliyati qanchalik ahamiyatli bo'lsa, bolalar uchun o'yin shunchalik ahamiyatga ega. "Yaxshi o'yin faoliyati, – deydi A.S. Makarenko, – yaxshi bajarilayotgan mehnatga o'xshaydi.

O'yin rivojlanishda nuqsoni bor bolalarning asosiy faoliyatlaridan hisoblanadi. O'yin doim haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi. O'yin ma'lum maqsadga ko'ra yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida bolada o'quv faoliyati rivojlanadi. Shuning uchun bolalarning o'yin faoliyatini rivojlantirishga ahamiyat berishimiz kerak. Bola hech qachon jim o'ynamaydi, bitta o'zi o'ynasa ham u o'yinchoq bilan gaplashadi, o'zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o'rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hammamizning o'rniga o'zi gapiradi. So'z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq o'yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o'z his-tuyg'u, kechinmalarini o'rtoqlashadi. So'z bolalar o'rtasida do'stona munosabatlar o'rnatilishiga, tevarak-atrofdagi hayot voqealari va faktlariga bir xilda munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarning o'zi yaratgan o'yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o'yinning g'oyasi, mazmuni, o'yin harakatlari, rollar, o'yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O'yin bola uchun haqiqiy hayotdir. Agar tarbiyachi bolalar o'yinini oqilona tashkil eta olsagina u ijobiy natijalarga erishishi mumkin. A.P. Usova shunday degan edi: "Bolalar hayoti va faoliyatini to'g'ri tashkil etish

— ulami to'g'ri tarbiyalash demakdir. Bolalarni tarbiyalashning o'yin shakli shuning uchun ham samarali natija beradiki, o'yinda bola yashashni o'rganmaydi, balki o'z hayoti bilan yashaydi”.

Biz bilamizki, hozirgi kunda maktabgacha ta'lim sohasiga doir qarorlar qabul qilinyapdi va undan ko'zlangan maqsadlar, kutilayotgan natijalar va e'tibor berildi. Bundan kutilayotgan asosiy maqsad kelajak avlodni har tamonlama yetuk, barkamol va bilimli shaxs sifatida tarbiyalamoqdir. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim agentligi xabariga ko'ra, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajai 2017-yilgi nisbatan (27.7foiz) 2.5 barobarga ya'ni 71.8 foizga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 5211 tadan 29420 taga yetkazilgan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev bu sohaga alohida e'tibor qaratib, kelajak avlodni aynan kichik yoshdan tarbiyalash siyosatini belgilab berdi. Chunki maktabgacha bo'lgan yosh davri bolada tashqi-atrofdan kelgan ma'lumotlarni qabul qilish kuchliroq bo'ladi. “Bu borada, avvalambor yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va manaviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshidan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etilishiga mustahkam zamin qaratyapmiz, zero bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'li bilan qaytishiga shubha yo'q “ dedi Shavkat Mirziyoyev

O'zbekistonda maktabgacha bo'lgan yosh davri 3 yoshdan 7 yoshgacha hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kichik guruh- 3-4 yosh, o'rta guruh- 4-5 yosh, kotta guruh- 5-6 yosh, tayyorlov guruhi esa 6-7 yoshni tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida 5 ta markazda faoliyat yuritadilar. Yan Amos Komenskiy o'yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to'g'ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o'yin - bolaning barcha qobiliyat ko'rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o'yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o'yin davomida tengqurlari bilan do'stlashadi. Y.A.Komenskiy o'yinga quvnoq bolalik va bolani uyg'un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o'yinlariga e'tiborli munosabatda bo'lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi. Shu tariqa o'yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo'lgan ijtimoiy faoliyatdir; o'yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o'zgarishi bilan uning mazmuni ham o'zgaradi; o'yin ma'lum maqsadga yo'naltirilgan ongli faoliyat bo'lib, uning mehnat bilan ko'p umumiyliigi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni bir-biriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. O'yin faoliyatining bir qancha turlari mavjud bo'lib, bu turlar asosida o'qituvchi va pedagoglar maktabgacha yoshdagi bolalarga bu jarayonlarni amaliyot tarzida keng olib borib o'rgatib kelishadi. Jumladan,

-jodiy o'yinlar bu bolalarning o'zlari o'ylab topgan o'yin hisoblanadi. Ijodiy o'yinlarda hech qanday qonun va qoidalar bo'lmaydi. Qoidalar bolalarning o'zlari tomonidan o'yin jarayoniga qarab o'ylab topiladi. Ijodiy o'yinlarga sahnalashtirilgan o'yinlar syujetli-rolli o'yinlar hamda qurish va yasashga doir o'yinlar kiradi. Bu o'yin orali bolada ijodkorlik qobilyatini va erkin fikrini, tashkilotchiligini kuzatish mumkun bo'ladi. Bu o'yin orqali bolani tevarak atrofdan olgan tasurotlari qayta ishlanadi. Syujetli-rolli o'yinlar o'z xususiyatiga ko'ra aks ettiruvchi faoliyat hisoblanadi. Ro'lli o'yinlar bolalarning kuzatuvchanligini, diqqatini va qiziquvchanligini oshiradi, bilish doirasini kengaytiradi. Ro'lli o'yinlarda har bir bola ro'lini o'ynaydi. Misol qilib aytsak: chol,

kampir, o'qituvchi va o'quvchi. Bu jarayonlar orqali yaxshi va yomon tushunchalarni to'laqonli anglay boshlaydi;

-bolalar o'yinlarining ikkinchi turkumiga kiruvchi bu qoidali o'yinlaridir. Bunga quyidagilar kiradi: didaktik, harakatli, musiqaviy va ermak o'yinlar. Qoidali o'yin ijodiy o'yindan farqi bolalar belgilangan qoidaga amal qilishlari talab qilinadi. Va bu bolada mas'uliyatli bo'lishni taminlaydi. Bu o'yin davomida, "to'g'ri" yoki "xato", "o'yin qoidasi buzuldi" degan bahslar yuritiladi. Bolalar o'yin jarayonida o'z-o'zini idora qila olishni o'rganadi. O'yin faoliyatida pedagog tarafidan o'yinda qatnashgan bolaga o'yin so'ngida rag'batlantirish va ishtirokchilarni maqtash, ularni yanada o'yin faoliyatiga qiziqish uyg'otadi

Xulosa qilib shuni aytish mumkunki, bu o'yin faoliyati bolaning rivojlanishida asosiy muhim ro'l o'yanaydi. Hozirgi kunda ham juda ko'p o'yinlar mavjud. O'yin jarayonida bola har tamonlama rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berishda va ularning faolligini oshirishda o'yin faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. O'yin faoliyati asosida boladagi o'quv faoliyati rivojlanadi. Bolaga ta'lim yoki ta'rbiya berish vaqtida nafaqat pedagog balki uning ota-onasi ham o'yin faoliyati orqali bolaga o'rgata oladi. Bu fikrlardan keyin shunday xulosaga kelish mumkunki, bola tarbiyasida o'yin faoliyating ahamiyati juda kattadir.

References:

1. 2017 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tubdan ta'minlanadi chora-i to'g'risida"gi PF 5198-sonli farmoni.
2. O'rinova, F. (2019). REPORT ON PROBLEMS IN THE PRE-SCHOOLS OF ORGANIZATIONAL PREVENTIVE CENTERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(11), 311-315.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi "2017-2021 yillar maktabgacha ta'lim yanPQ2707- 1
4. Nabijonova D. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish psixologiyasi. Toshkent: 2002.
5. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. "Umumiy psixologiya". - Toshkent: Mumtoz so'z, 2010.